

“RAQAMLI SUD” KONSEPSIYASI JORIY ETILMOQDA



Har bir soha yildan-yilga takomillashib, yangilanib boraveradi. Jumladan, sud tizimidagi qonunchilikni ham shular qatoriga kiritsak bo'ladi. Sud faoliyatini raqamlashtirish tahlili ushbu institutni takomillashtirish orqali amaldagi tartibni qayta ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatdi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish orqali odil sudlovga erishish darajasini oshirish hamda sud tizimining moddiy-texnik ta'minotini yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” 2025-yil 21-avgustdagi PF-140-sonli farmoni alohida o'rin tutadi.

Ushbu Farmon orqali sud tizimini takomillashtirish hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilishning yangi bosqichlari va uslublari o'z ifodasini topgan.

“Raqamli sud” konsepsiyasi joriy etilishidan maqsad fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga qulayliklar yaratish hamda sud ishlarini ko'rishni soddalashtirish hisoblanadi.

Xususan, “Raqamli sud” konsepsiyasi asosida ishlarining yuritilishini bosqichma-bosqich to'liq elektron shaklga o'tkazish nazarda tutilgan.

Sudlar faoliyatiga sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish uchun zarur texnik infratuzilma yaratish, shuningdek, ushbu yo'nalisdagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bo'yicha choralar ko'rish alohida ta'kidlangan. Bundan tashqari, ushbu Farmon

bilan iqtisodiy sudlar tuzilmasini optimallashtirish orqali ularning faoliyati samaradorligini oshirish va yagona sud amaliyotini shakllantirish ham o'rin olgan.

Bundan buyon ma'muriy va iqtisodiy sudlarda ish ko'rilayotganda, taraflar masofaviy tarzda, sud majlislari zaliga shaxsan borib qatnashmasdan, videokonferensaloqa orqali amalga oshirishlari, murojaatlar elektron shaklda yuborilishi, sudya taraflar tomonidan taqdim qilingan hujjatlar asosida ishni xolis va adolatli ko'rib chiqishi imkoniyati paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida shaffof sud tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ushbu konsepsiya joriy etilishi natijasida kelgusida sudga ariza berishdan oldin sun'iy intellekt yordamida sud muhokamasining taxminiy natijasi hamda sarflanadigan xarajatlar shakllantirilishi, murojaatlar sudga elektron shaklda yuborilishi, ishda ishtirok etuvchi shaxslar sud binosiga tashrif buyurmasligi va sud muhokamalarida masofadan turib ishtirok etishi, taraflar va ishda ishtirok etuvchi boshqa shaxslarga sud jarayonlarida ishga doir barcha materiallar bilan elektron shaklda tanishish imkoniyati yaratilishi, sud xarajatlari elektron shaklda hisoblanishi va to'lanishi, shuningdek, ijro varaqalari avtomatik ravishda ijroga yuborilishi, sud ishleri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda to'liq elektron tarzda yuritilishi, sun'iy intellekt yordamida sud majlisi bayonnomalari real vaqt rejimida matn shaklida tayyorlanishi, sud hujjatlari loyihalari avtomatik shakllantirilishiga erishiladi.

Sud odilona qarorlar chiqarish, qarorlarning qonuniyligi, asosiligi va adolatligini tekshirishning amalga kiritilgan yangi tartibi bir xil sud amaliyotini shakllantirish, quyi sudlar tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni tuzatish, fuqarolarning qonuniy manfaatlarini tiklash bilan bog'liq uzviy huquqlari ta'minlanishini, adolatli sud qarorlari qabul qilinishiga erishish orqali xalqning, shu jumladan, tadbirkorlarning sud tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bezod Bekturayev
Jinoyat ishlari bo'yicha Yangiobod tuman sudining tergov sudyasi

YOSHLAR BILAN OCHIQ MULOQOT

Yangiobod tuman texnikumida yoshlar bilan uchrashuv o'tkazildi

Bugungi kunda yoshlar bilan doimiy muloqot qilish, ularning muammo va takliflarini o'rganish, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda Yangiobod tuman texnikumida Payshanba – Yoshlar kuni munosabati



bilan yoshlar bilan uchrashuv tashkil etildi.

Mazkur uchrashuvda Yangiobod tumani hokimi Ibrohim Qarshiboyev ishtirok etib, texnikum talabalari bilan ochiq muloqot olib bordi. Tadbir

davomida yoshlarning fikr-mulohazalari, taklif va tashabbuslari tinglanib, ularni qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash hamda kelgusidagi rejalari yuzasidan atroflicha fikr almashildi.

Uchrashuv davomida tuman hokimi yoshlar bilan ishlash masalasi bugungi kunda alohida e'tiborda ekanini ta'kidlab, ularning bilim olishi, kasb-hunar egallashi hamda jamiyat hayotida faol ishtirok etishi uchun zarur sharoitlar yaratib berilayotganini qayd etdi. Yoshlar esa o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan savollar berib, o'z fikr va takliflarini bildirishdi.

Jumladan, talaba-yoshlar ta'lim jarayoni, kasb-hunar egallash, kelajakda ish bilan ta'minlanish, tadbirkorlik faoliyatini boshlash, turli loyiha va dasturlarda ishtirok etish imkoniyatlari haqida o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qildilar. Uchrashuv davomida yoshlarning tashabbus va g'oyalari har tomonlama qo'llab-quvvatlanishi, ularning bandligini ta'minlash hamda o'z salohiyatini namoyon etishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilayotgani alohida ta'kidlandi.

Shuningdek, tadbirda tuman prokurori Sh. Salimov, tuman Ichki ishlar bo'limi boshlig'i J. Xojanov hamda tegishli tashkilotlar rahbarlari ham ishtirok etib, yoshlarni qiziqtirgan savollarga batafsil javob berdilar. Mutasaddilar tomonidan yoshlarni qonunlarga hurmat

ruhida yashashga, bilim olishga intilishga, jamiyatda faol fuqarolik pozitsiyasini egallashga hamda turli salbiy illatlardan yiroq bo'lishga chaqirildi.

Uchrashuv davomida yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni sport, madaniyat va boshqa ijtimoiy sohalariga keng jalb etish muhim ahamiyatga ega ekanini ham qayd etildi. Ta'kidlanganidek, faol va tashabbuskor yoshlar jamiyat rivoji hamda yurt taraqqiyotining muhim omili hisoblanadi.

Ochiq va samimiy ruhda o'tgan uchrashuv davomida yoshlar o'zlarini qiziqtirgan masalalar yuzasidan erkin fikr bildirib, mas'ul rahbarlar bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bu esa yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish hamda ularning muammolarini joyida hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadbir yakunida yoshlar bilim olishga, o'z ustida muntazam ishlashga, kasb-hunar egallab kelajakda yurt ravnaqi yo'lida munosib hissa qo'shadigan yetuk mutaxassis bo'lib yetishishga chaqirildi. Shuningdek, bu kabi uchrashuvlar yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ularning muammo va takliflarini o'rganish hamda kelajak rejalari amalga oshirishda muhim o'rin tutishi alohida ta'kidlandi.

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI GAZETASI

MUASSIS:

YANGIOBOD TUMAN HOKIMLIGI

Bosh muharrir:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta Jizzax viloyati matbuot va axborot boshqarmasida 06-041 raqami bilan ro'yhatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:

Ibrohim QARSHIBOYEV
Azizbek NISHIONOV
Valijon XASANOV
Beknazar TOSHBOYEV
Olimjon BEGMATOV
Fozil HAMROYEV

TELEFON:

+998 72 542-11-31

NASHR UCHUN MAS'UL:

A. MUHAMMADIYEV

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terilib, sahifalandi. Qog'oz bichimi A-3. Gazeta «RASTR PLYUS PRINT» MCHJ da ofset usulida 200 nusxada chop etildi.

Korxona manzili: Jizzax shaxri, Sayiljoy ko'chasi, 4-uy.
Bosishga ruhsat etildi 24.03.2026-yil
BUYURTMA №

BUYUK KELAJAKNI BIRGA QURAMIZ

YANGIOBOD OVOZI

YANGIOBOD TUMANI HOKIMLIGINING IJTIMOIIY-SIYOSIIY, MA'RIFIY GAZETASI

4-son (65) 24-mart 2026-yil, seshanba	Ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy gazeta	Bahosi erkin narxda	Gazeta 2019-yil yanvardan chiqa boshladi
---------------------------------------	-----------------------------------	---------------------	--

2026-YILDA ALKOGOL MAHSULOTLARINI REALIZATSIIYA QILISH UCHUN YIG'IM STAVKALARINI OSHIRISH TO'G'RSIDA

Yangiobod tumani bo'yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'imlarning cheklangan stavkalarini oshirish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda gi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-387-sonli qarori hamda Yangiobod tuman soliq inspeksiyasining taklifiga asosan tumanda 2026-yilda alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini realizatsiya qilish uchun yig'imlarning cheklangan stavkalarini oshirish maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda gi “Mahalliy budjetlar va budjet tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish, budjet intizomini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi 387-sonli qarorining 2-xatboshi “v”-bandiga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashlariga alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'imlarning cheklangan stavkalarini 20 foizgacha oshirish vakolati berilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2.Deputatlar tomonidan bildirilgan takliflarni inobatga olib Yangiobod tumani bo'yicha 2026-yil uchun alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'imlarning cheklangan miqdori ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman soliq inspeksiyasi (A.Suyunov)ga belgilangan tartibda yig'imlarning to'liq va o'z vaqtida undirilishini ta'minlash;

- tadbirkorlik subyektlariga mazkur qarorning mazmun-mohiyati yuzasidan tushuntirish ishlarini olib borish vazifasi yuklatilsin.

4.Yig'implardan tushgan tushumlar to'liq miqdorda tuman byudjetiga yo'naltirilsin.

5.Ushbu qaror rasman “Yangiobod ovozi” gazetasida e'lon qilinsin hamda tuman hokimligining veb-saytiga joylashtirilsin.

6.Ushbu qaror ijrosini ta'minlash tuman hokimining birinchi o'rinbosari **R.Abdug'aniyev** zimmasiga yuklansin.

7. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

8.Ushbu qaror rasman e'lon qilingan kundan e'tiboran 3 oydan keyin kuchga kiradi.

Yangiobod tumani bo'yicha 2026-yilda alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi hamda umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish uchun yig'imlarning cheklangan miqdori			
T/R	Yig'im turi	Bir o'ya chegaralangan stavkalar (so'mda)	
		OPRQ -1105 -sonli Qonuni ilovasiga asosan belgilangan chegaralangan stavkalar	2026 -yil uchun belgilangan yig'im miqdori (tadif)
1.	Alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	300 000	345 000
2.	Umumiy ovqatlanish korxonalari tomonidan alkogol mahsulotlarini (bundan pivo mustasno) realizatsiya qilish huquqi uchun yig'im	150 000	172 500

YOSHLARNI GIYOHVANDLIK ILLATIDAN ASRASH – MUHIM VAZIFA

“Narkotiklarga aralashish jinoyatga yetaklaydi” mavzusida davra suhbatii o'tkazildi



Bugungi kunda yosh avlodni turli zararli illatlardan asrash, ularning ongida sog'lom turmush tarzini shakllantirish hamda huquqiy madaniyatini yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, giyohvandlik kabi jamiyat uchun xavfli illatlarga qarshi kurashish, yoshlarni bu kabi salbiy yo'llardan ogoh etish va ularning ongida mustahkam hayotiy pozitsiyani

Tadbirda tuman Ichki ishlar bo'limi, Sport maktabi hamda Tibbiyot birlashmasi mutaxassislari ishtirok etib, o'quvchilar bilan ochiq muloqot o'tkazdilar. Tadbir davomida yoshlar bilan samimiy suhbat tashkil etilib, giyohvandlikning inson hayoti, salomatligi va kelajagiga yetkazadigan zarari haqida batafsil tushuntirishlar berildi.

Giyohvand moddalar inson organizmiga o'ta salbiy ta'sir ko'rsatib, uning asab tizimini izdan chiqaradi, ichki a'zolar faoliyatini buzadi hamda insonning ruhiy holatiga jiddiy zarar yetkazadi. Ayniqsa, yosh organizm bunday moddalar ta'siriga juda tez beriluvchan bo'lib, qisqa vaqt ichida og'r oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Tibbiyot mutaxassislari o'z chiqishlarida giyohvand moddalar inson salomatligiga qanday zarar yetkazishi haqida batafsil ma'lumot berib, yoshlarni bunday xavfli odatlardan qat'iyan yiroq bo'lishga chaqirdilar. Ta'kidlanganidek, giyohvandlik insonning nafaqat jismoniy salomatligini, balki ruhiy barqarorligini ham izdan chiqaradi.

Tadbir davomida Ichki ishlar organlari xodimlari ham so'zga chiqib, giyohvand moddalar bilan bog'liq jinoyatlar uchun qonunchilikda belgilangan javobgarlik choralariga alohida to'xtalib o'tdilar.

Tadbir davomida 1-son umumta'lim maktabi o'quvchilari hamda Sport maktabi tarbiyalanuvchilari faol ishtirok etdilar. Ular mutaxassislarga o'zlarini qiziqtirgan savollar bilan murojaat qilib, zarur tavsiyalar oldilar.

